

Qodirov Saidqosim Po'latxon o'g'li

*TDPU magistpanti va "NURLI KELAJAK" o'quv markazi
o'qituvchisi*

Karimova Nozima Qurbonboy qizi

*Toshkent viloyati Piskent tumani 25-maktab va "NURLI
KELAJAK" o'quv markaz o'quvchisi*

Elektron pochta manzili:

FIZIKA VA TIBBIYOT

Annotatsiya: *Maqolada fizika, texnika va tibbiy asbobsozlikdagi muvaffaqiyatlar hamda ularning bog'liqlik tomonlari ko'rib chiqilgan.*

В статье рассматриваются достижения физики, техники и медицинской техники и их взаимосвязь.

The article discusses the achievements in physics, engineering and medical equipment and their interrelationships.

Kalit so'zlar: *Fizika, texnika, tibbiy asbobsozlik, atom, molekula, bosim, molekulyar fizika, termometr .*

Ключевые слова: *Физика, инженерия, медицинские инструменты, атом, молекула, давление, молекулярная физика, термометр.*

Key words: *Physics, engineering, medical instruments, atom, molecule, pressure, molecular physics, thermometer.*

Respublikamizda yuz berayotgan o'zgarishlar barcha sohani qamrab olmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan har bir chiqishlarida, jumladan 2020 yil 29 dekabrdagi murojaatnomasida fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilalaganlari, davlatni rivojlantirish, halq farovonligini oshirish maqsadida qo'yilgan qadam, harakatlar strategiyasining bosh maqsadi xalq manfaatidir[1]. U besh banddan iborat bo'lib to'rtinchi bandi aynan ta'lim sohasiga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasi birinchi navbatda jamiyatdagi

ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishning yo'nalishlari bilan belgilanadi. Yuqorida aytilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aksariyat sohalarning negizida fizika asos hisoblanadi. Shu bois, hozirgi zamon tibbiyotining yutuqlari ko'p jihatdan fizika, texnika va tibbiy asbobsozlikdagi muvaffaqiyatlarga asoslangan. Kasalliklarning tabiati va sog'ayish mexanizmi ko'p hollarda biofizika tushunchalari asosida tushuntiriladi. Shuning uchun tibbiyot oliygohining o'quvchilari 1-kursdanoq "Tibbiy va biologik fizika" kursida fizika, texnik, biologik fizika va matematikadan umumiyl holda maxsus bilimlarni egallaydilarki, bu fanlarning asosi fizika bo'lib, u tibbiy-biologik masalalarini hal qilishga yo'naltiriladi.

Tibbiyotda fizika, boshqa fanlarda bo'lgani kabi, muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ushbu ilmning odamlarning sog'lig'i va hayotiga qanday ta'sir qilgani haqida ko'plab misollarni ko'rib chiqamiz. Biz kimnidir yo'lidan ozdirmaslik uchun murakkab ilmiy va texnik tafsilotlarga bormasligimiz haqida darhol tan olamiz. Keling, bu misollarni ko'rib chiqaylik.

Tibbiyot odam sog'lig'ini baholash uchun asos bo'lgan uchta muhim parametrlardan iborat emas: harorat, bosim va tez-tez yurak urishi. Ma'lumki, harorat termometr bilan o'lchanadi (oddiy odamlar "termometr" deb nomlanadi). Va qanday ko'rsatkichlar bo'lishi kerak? Inson uchun norma $T = 36,6 \pm 0,5$ ni tashkil qiladi. Albatta, masalan, $36.3 \pm 0,5$ va $36.8 \pm 0,5$ bo'lishi mumkin. Ammo, tana harorati $36,9 \pm 0,5$ dan yuqori bo'lsa, unda biz odamning yaxshi emasligini aytishimiz mumkin. Biz quyida molecular fizika bo'limini o'qitish va uni tibbiyot bilan bog'liq o'ziga xos tomonlarini tahlil qilamiz.

Ma'lumki, biologik organizmlar ochiq termodinamik sistema bo'lib, atrofidagi muhit bilan tinmay moddalar almashinib turadi. Fizik organizmning hujayra va to'qimalarda gazlar, suv va unda moddalarni o'tkaza oladiganligi uchun moddalar shu tariqa almashinish hodisasi o'tkazuvchanlik hodisasi deb yuritiladi[.

Organizmning butun hayot faoliyati shu xususiyatga bog'liq bo'lib, moddalarning hujayralari bilan to'qima suyuqligi o'rtasida tarqalishi biopotensiallar hosil bo'lishi va boshqalar o'tkazuvchanlik tufayli yuzaga keladi.

Tibbiyotda fizika fani shunchalik chambarchas bog'liqki, inson tanasidagi har bir holat, harakat, klinik, biologik, fiziologik, ineksiyon jarayonlar, reaksiya holatlari shular jumlasidandir.

Temperaturaning fiziologik holati: ideal gaz uchun molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi oson o'lchanuvchi bosim, gaz molekulalarining o'rtacha kinetik energiyasi va konsentratsiyasi kabi mikroskopik parametrлari bilan bog'lanish o'rnatadi. Biroq gazning faqat bosimini o'lhash orqali biz molekulalar kinetik energiyasining o'rtacha qiymatini ham, ularning konsentratsiyasini ham alohida bila olmaymiz. Demak, gazning mikroskopik parametrлarini topish uchun molekulalarning o'rtacha kinetik energiyasi bilish lozim, ya'ni biror fizik kattalikni o'lhash kerak. Fizikada bunday kattalik bo'lib temperatura hisoblanadi

Issiq va sovuq jismlar orasida kontakt o'rnatilgandan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng jismlarning mikroskopik parametrining o'zgarishi to'xtaydi. Jismlarning bunday holati issiqlik muvozanati deyiladi.

Issiqlik muvozanati holatidagi jismlar sistemasining hamma qismlarida bir xil bo'lgan fizik parametr jismning temperaturasi deyiladi.

Temperaturaning fiziologik holat bilan tibbiyotning bog'liqlik tomoni shundaki, fizikada biron-bir jismning yoki gazning holatlari kuzatilsa, tibbiyotda esa inson tana haroratining maksimal darajada ko'tarilishi va bu yomon holatlarga olib kelishiga sabab bo'ladi. Termoregulyasiya — (issiqlikni boshqarish) odam organizmida tana haroratini doimiy tutib turadigan fiziologik jarayondir.

Tashqi muhitning yuqori harorati teridagi termoretseptorlarni ta'sirlantiradi, bunda teridagi kapillyar qon tomirlar reflektor ravishda kengayib, nafas tezlashadi. Natijada teri sathida issiqlik sochilishi, zo'r berib chiqayotgan terning bug'lanishi va

kamroq darajada nafas yo'llari shilliq pardasidan issiqlik sochilishi hamda suv bug'lanishi hisobiga issiqlik ajralishi kuchayadi.

Yilning sovuq faslida zo'r berib ajraladigan issiqlik o'rniga jadal jismoniy ish bajarish, shuningdek kuchli ovqat berish yoki bir yo'la har ikkalasini qilish yo'li bilan qoplash mumkin.

Haroratning kun davomida bir necha gradusga o'zgarishi, oksidlanish jarayonlarining yoki odam oziqlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Sog'lom odamlarda harorat qaerda o'Ichanganiga qarab ko'rsatkichlar ham har xil bo'ladi. Bular: og'iz bo'shlig'i, qin, to'g'ri ichak shilliq pardasining harorati, qo'ltiq va chov sohasining terisining haroratidan $0,2 \div 0,4^{\circ}\text{S}$ yuqoridir.

Normada tana haroratlari:

Bolalarda — $37 - 38,5^{\circ}\text{S}$;

Katta odamlarda — $36,5 - 37^{\circ}\text{S}$;

Keksalarda — $35,5 - 36,5^{\circ}\text{S}$.

Biroq haroratning fiziologik o'zgarishlari nimalarga bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar normadan dan oshmasligi kerak.

Termometrlar — kundalik hayotda



1°S

temperaturani suyuqlikli termometrlar bilan o'Ichash keng tarqalgan. Suyuqlik termometrining tuzilishida suyuqliklarning isitilganda kengayish xossasidan foydalilanadi. Ishchi jism sifatida odatda simob, spirt, glitserin qo'llaniladi. Jismning temperaturasini o'Ichash uchun termometr shu jism bilan kontaktga keltiriladi, jism va termometr orasida issiqlik muvozanati o'rnatilguncha issiqlik o'tkazish amalga oshiriladi. Termometrning massasi jismning massasidan ancha kichik bo'lishi kerak, chunki aks holda o'Ichash jarayoni jismning temperurasini ancha o'zgartirib yuborishi mumkin.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-10 (28-FEBRUARY)

Jism bilan termometr orasidagi issiqlik almashinuvi to'xtaganda, termometrda suyuqlik hajmining o'zgarishi to'xtaydi. Bunda termometrdagi suyuqlikning temperaturasi jismning temperaturasiga teng bo'ladi. Timpatik termometrlar — elektron asbob shaklida bo'lib, batareyalar yordamida ishlaydi va quloq nog'ora pardasining haroratini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Kimyoviy termometrlar — bir marta qo'llashga mo'ljallangan bo'lib, harorat o'zgarganda o'z rangini o'zgartiradigan, issiqlikni sezuvchi kimyoviy moddalar bilan to'ldirilgan nuqtalar ko'rinishidagi ingichka plastik yassi parchalardir.

Elektron termometrlar — esa haroratni tez va aniq o'lhashni ta'minlaydigan, bir marta ishlatib almashtiriladigan uchli maxsus termometrlar hisoblanadi.

Fizikada va tibbiyotda bosimning o'rni va ahamiyatini qarab chiqaylik. Masalan: ideal gaz bosimi — molekulyar-kinetik nazariyaning birinchi va muhim shartlaridan biri gazning idish devorlariga beradigan bosimi hodisasini sifat va miqdor jihatdan tushuntirish edi. Gaz bosimini sifat jihatdan tushuntirish shundan iboratki, bunda ideal gaz molekulalari idish devorlari bilan to'qnashganda elastik jism kabi mexanik qonunlar bo'yicha ular *bilan o'zaro ta'sirlashadi*.

Gazning molekulalari juda ko'p va ular devorga birin — ketin katta tezlik bilan uriladi. Molekulalarning idish devoriga urilishida ayrim molekulalar tomonidan ta'sir qiluvchi kuchlarning geometrik yig'indisining o'rtacha qiymati gazning bosim kuchi bo'ladi. Gazning bosimi F bosim kuchi modulining devor yuzi S ning nisbatiga teng:

$$p = \frac{F}{S}.$$

Tibbiyotda bosimning o'rni juda katta bo'lib, odam tanasidagi moddalar aylanishi, qon aylanishi, stres holatlarida kuzatiladi. Masalan: arterial bosim: sistola va diastola vaqtida tomirlar devoriga tushadigan qon bosimidir. Arterial bosim yurakdan otilib chiqadigan qon miqdoriga, qon oqimiga, umumiy periferik tomirlarning nechog'li qarshilik ko'rsatishiga, tomirlar devorining elastikligiga

bog'liq. Sistolig (maksimal), diastolig (minimal) arterial bosim va puls arterial bosimi farqlanadi.

Diastolig bosim – yurak diastolasi oxirida puls to'lqini tushgan vaqtida yuzaga keladi.

Arterial bosimni o'lchash moslamalari simobli sfigmomanometr (Riva-Rochchi) va prujinali bosim o'lchagich hisoblanadi. Riva-Rochchi apparati hozirda ishlatilmaydi. Ko'p hollarda prujinali apparat ya'ni fanendaskop va tanometr yordamida o'lchanadi.

Bunda arterial bosim prujina qarshilik kuchi bilan o'lchanib, bu kuch millimetrlı bo'linmalar bo'lgan sferblat bo'ylab harakatlanadigan strelkalarga o'tadi.

Apparat prujinali manometr, monjetka, nokcha – ballon va asbob qismlari o'zaro tuta bosim elka arteriyasidan o'lchanib, bemor tinch holatda o'tirishi kerak. Chunki odam harakatlansa bosim kuchayib, normada chiqmaydi. Shunga o'xshagan fiziologik holatlar kuzatiladi.

Uning echimi kasbni egallashda yordam beradigan fizikaning kasbiy mazmunidagi materiallarni har bir o'quv mavzusiga imkon qadar ko'proq kiritilishi mumkin. Masalan, tibbiyat kasb-hunar kollejlarining hamshiralik ishi, davolash ishi va farmatsiya yo'naliishlari uchun fizika darslarining fanlararo bog'lanishni tahlil etish mumkin. Tibbiyotda o'qitiladigan fanlardagi "Issiqlik o'tkazuvchanlik va odam tanasidagi issiqlik muvozanati", "Bug'lanish", "Qaynash", "Suyuqlik-larning xossalari", "Qon bosimi haqida tushuncha", "Atmosfera bosimi va uning organizmga ta'siri", "Havoning namligi va uning inson salomatligi uchun ahamiyati" va boshqa mavzularni o'qitishda fizika fani bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, inson organizmi va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni fizika, texnika va tibbiyat birgalikda bizga tushuntirib beradi. Shuning uchun ham fizikaning rivojlaninshi va yutuqlarining tibbiyat sohasida qo'llanishi inson hayotida juda kata ahamiyatga ega.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-10 (28-FEBRUARY)**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.** Mirziyoev.Shavkat Miromonovich. Murojaatnoma 29 yanvar 2020 yil.
- 2.** Inomov Q.S. Hamshiralik ishi asoslari. Tibbiyat kollejlari uchun darslik. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" DIN, 2007 y. 245b.
- 3.** G'aniev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. AL va KHK lari uchun darslik. I qism. Toshkent. O'qituvchi NMIU, 2008 y. 416 b.

<https://en.wikipedia.org/wiki/Physics>